

Oliy ta'lim muassasalari va ularning filiallari, Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi, respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari, ilmiy-tadqiqot institutlari va klinik ordinatorlarni o'qitish vakolati berilgan xususiy klinikalar klinik ordinaturasiga kirish test sinovlarida **XALQ TABOBATI FALSAFASI** fanidan foydalaniladigan test varianti tafsiloti

1. Test variantining qo'llanish maqsadi:

Xalq tabobati falsafasi fanidan test topshiriqlari O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalari va ularning filiallari, Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi, respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari, ilmiy-tadqiqot institutlariga kirish test sinovlarida oliy ta'limning davlat ta'lim standartlari hamda Xalq tabobati falsafasi faniga oid o'quv dasturlarida o'zlashtirilishi belgilangan bilim, ko'nikma, malaka talablari asosida talabalarning tayyorgarlik darajasini aniqlab berish uchun mo'ljallangan.

2. Test variantini shakllantirishda asos bo'luvchi me'yoriy hujjatlar:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Tibbiyot xodimlari malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi 2009-yil 18-dekabrda VMQ-319-son qarori bilan tasdiqlangan "Tibbiyot xodimlari malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tartibi to'g'risida" Nizom;

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirining "2024/2025 o'quv yilida klinik ordinatura (rezidentura)ga qabul qilish to'g'risida"gi 2024-yil 17-iyuldagi 238-son buyrug'i;

Xalq tabobati falsafasi faniga oid amaldagi davlat ta'lim standarti va o'quv dasturlari.

3. Xalq tabobati falsafasi fanidan shakllantiriladigan test variantining tarkibi:

Xalq tabobati falsafasi fanidan mutaxassislik fani sifatida shakllantiriladigan test varianti talabalarning nazariy bilimlarni o'zlashtirish darajasi bilan birga mantiqiy fikrlashi, masala va topshiriqlarni bajara olish qobiliyati va ta'limning keyingi bosqichiga tayyorgarligini baholaydigan, fanga oid kompetensiyalarni tekshirishga yo'naltirilgan test topshiriqlaridan tarkib topadi. Test topshiriqlarining soni hamda baholash mezonlari O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi va oliy ta'lim muassasalari tomonidan tasdiqlanadi.

4. Test topshiriqlari yordamida tekshiriladigan fan mazmunining tarkibi

Kodi	Tekshiriladigan fan mazmunining tarkibi
1.1	<p>Sogʻliqni saqlash tizimida Xalq tabobatining oʻrni. Xalq tabobati sohasini rivojlantirish, uni tartibga solish, vazifalarni aniqlashtirish boʻyicha respublikada bajarilayotgan ishlar va qabul qilingan qonuniy hujjat va buyruqlar bilan talabalarni tanishtirish</p>
1.2	<p>Xalq tabobati amaliyotida sogʻlomlashtiruvchi tadbirlar profilaktikasi, usullari va muolajalarni oʻrganishda falsafiy yondashuvni oʻrni. Sogʻliqni saqlash tizimi muassasalarida, aholi oʻrtasida sogʻlom turmush tarzini targʻibot qilish, tibbiy nufuzini oshirish, oʻtkir va surunkali kasalliklarning kelib chiqishi va tarqalishini oldini olish, yuqumli kasalliklarni oldini olish doirasida epidemiya va pandemiyaga qarshi chora - tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirishda talabalarda toʻgʻri tushuncha va koʻnikmalarni hosil qilish.</p>
1.3	<p>Noanʻanaviy tabobatda qoʻllaniladigan davolash usullarning ilmiy sharxi. Xalq tabobatida qoʻllaniladigan davolash vositalar va usullarni ilmiy manbalardan foydalangan holda tanlashni oʻrgatish.</p>
1.4	<p>Qadimgi Xitoy tabobatining klassik asarlari oʻzagi-"Xuandi Ney-szin" ("Ichki aʼzolar bitigi") "Xuandi Ney-szin" ("Ichki aʼzolar bitigi") va boshqa tibbiy asarlar bilan talabalarni tanishtirish. Xitoy tabobatida davolashning nazariy tizimidagi oʻzaro kurash va bogʻliqlik haqida taʼlimot.</p>
1.5	<p>Xind-Tibet tabobatida nazariy qarashlar, falsafiy konsepsiya va oʻziga xos davolash usullari. Xind-Tibet tabobatidagi nazariy bilimlar, davolash yoʻllari va falsafiy konsepsiyalarni yoritib berish. Xindiston va Tibetning qadimgi tibbiy asarlari. "Chjud-Shi", "Ayur-Veda" va boshqa qadimiy tibbiy kitoblarda keltirilgan 1000 dan oshiq dorivor oʻsimliklar, xamda davolash vosita va usullari xaqida talabalarga maʼlumot yetkazish. Qadimgi Xind-Tibet tabobatining umumiy tibbiyot nazariyasini barpo etishda tabiblarning koʻp asrlik merosi. Qadimiy Tibetda anatomiya va fiziologiya tushunchasini paydo boʻlishi va uni rivojlanishida tabiblarni mashaqatli mexnatlari xamda ulardan qolgan boy ilmiy meroslar bilan talabalarni tanishtirish.</p>
1.6	<p>Xorazm, Sugʻdiyona, Baqtriya, Midiya ibodatxona tabiblarining tibbiy-falsafiy va empirik bilim va malakalari. Avesto kitobi unda keltirilgan unsurlar taʼrifi, inson organizmidagi kurinmas energiya oqimlari va boshqa tibbiy tushunchalar va ularni oʻrgangan tabiblar xaqida maʼlumotlar toʻplash. Bobil va Ossuriya tibbiy maktablari. Uruk va Borsippa shahridagi qadimiy Eduba va boshqa maktab tabiblari merosini oʻrganib chiqish. Qadimgi Misr tabiblari tomonidan qoʻllanilgan davolovchi vositalar. Dorivor oʻsimliklar, xashorot va xayvon maxsulotlaridan tayyorlangan dorivor vositalar bilan talabalarni tanishtirish.</p>
1.7	<p>Ibn-Sino xayoti va faoliyati. Ibn – Sino bilim doirasi - falsafa, tibbiyot, matematika, astronomiya, botanika, sheʼriyat, musiqa. Ibn Sino asarlari nafaqat tibbiyot xaqida, falsafa soxasiga ham katta xissa qoʻshganligi. Ibn Sino falsafiy qarashlari. Atom nazariyasi, boʻshliq xaqidagi nazariyasi. Salomatlik holati, salomatlikni saqlash yoʻllari, kasallik xaqida. Kasalliklar infeksiyon tabatga ekanligi va yuqumliligi xaqida. Mizoj xaqida. Ibn Sinoning butun jaxon ilm-fan rivojlanishiga qoʻshgan xisasi. Ibn Sino falsafa soxasida oʻzidan avvalgi faylasuflar (Aristotel, Platon, Demokrit)ning dunyo kelib chiqishi, vaqt, materiya, yer-koinot xaqidagi, abstraksiya, intuitsiya nazariyalari, "Sharq olimlari falsafasi" kitobi Ibn Sino tibbiyotga qoʻshgan hissalarini.</p>
1.8	<p>Anʻanaviy Koreys tibbiyotining falsafiy konsepsiyalari. In-Yan va besh element nazariyalari. Koreys anʻanaviy tibbiyoti rivojlanishi falsafa va diniy qarashlar</p>

	<p>bilan bog‘liqligi. Tabiatning barcha xodisalari, shu jumladan inson orshganizmi In va Yan falsafiy nazariyalariga bo‘ysunishi. Organizm bir butunligi va bir a‘zodagi o‘zgarish albatta boshqa a‘zo va tizim faoliyatiga ta’sir qilishi va bu o‘z aksini besh element nazariyasida topgan. Koreya va xitoy an’anaviy tibbiyotining farqli tomonlari. Koreys tibbiyoti ko‘p jixatdan Xitoy tibbiyotiga o‘xshash tomonlari borligiga qaramasdan farqli tomonlari bor. “Sasang” usulida ya’ni bemorlarni tana tuzulishlariga ko‘ra tasniflash va tana tuzilishiga ko‘ra bemorlarni davolash faqat Koreys tibbiyotida mavjud, Xitoyda yo‘q. Birinchi Koreys farmokopeyasida sarimsoq piyoz va shuvoq xaqida yozilgan. Koreya o‘ziga xos shifobaxsh o‘simliklari.</p>
1.9	<p>Qadimgi Sharq tibbiyotida tashxislash asoslari. Sharq mamlakatlaridagi insonni bir butunlik va uni a‘zo va tizimlarga ajratmaslik o‘ziga xos tashxislash usullarini kelib chiqishiga sabab bo‘ldi. Inson kayfiyati va ruxiyati ma’lum bir kasalliklarga moillikka olib keladi. Pulsqa qrab tashxislash. Pulsni soni, to‘liqligi, zarbi, kuchi, ritmi va boshqa xususiyatlariga ko‘ra turlarga bo‘linishi. Organizmdagi energiya oqimi va energetik kanallardagi o‘zgarishlarning tashxis qo‘yishda ahamiyati.</p>
1.10	<p>Qadimgi Sharq tibbiyotida davolash asoslari. Qadimgi Sharq mamlakatlarida kasalliklarni davolashda diniy qarashlarning ahamiyati. Inson tabiat bilan uzviy bog‘liqligini anglashi va tabiiy usullarni kasalliklarni davolashda keng qo‘llanilishi. Uqalash, jismoniy mashqlar, o‘simliklardan tayyorlangan surtmalar surtish. Shifobaxsh o‘simliklarni turli shakllarda qo‘llash(ichga, tindirma, qaynatma, surtma, malham, ingalyatsiya, tutunini xidlash va b.qalar). Tanadagi og‘riqli nuqtalarga bosish, akupunktura va akupressuraning paydo bo‘lishi.</p>
1.11	<p>Qadimgi Sharqda farmakopeya asoslari. Xitoyning eng birinchi farmokopeyasi eramizdan oldingi III asrda paydo bo‘lgan, “Shen Nun” deb nomlangan, unda 365 xil turli shakldagi(kukun, pilyulya, qaynatma, damlama, tindirma, malxam va boshqalar) o‘simlik ta’riflangan. Koreyada “Pekche Sinsyu”. Shuningdek Tibet va Xindiston o‘z iqlim sharoiti o‘simliklari to‘plamidan iborat farmokopyalari mavjud. O‘simliklar turli Sharq mamlakatlaridan sotib olinishi bu farmokopeyalarda kesishish va farqli tomonlari borligini ko‘rsatadi.</p>
1.12	<p>O‘rta Osiyo tibbiyotining falsafiy asoslari. Avesto qonunlari. O‘rta osiyodagi islom kirib kelgunga qadar dunyoning abadiyligi va otashparastlik falsafiy qarashlariga asoslanishi. Yomon ruxlar kasallikka olib kelishi, ruxlarni insondan xaydab chiqarish, turli vositalardan foydalanish. Zoroastrizm. Intuitiv davolash. Quyosh,yer, suv, xavo. Gumoral nazariya. Qon,flegma,sariq safro, qora safro.</p>
1.13	<p>O‘rta Osiyo buyuk qomusiy olimi Farobiyning tibbiyotga qo‘shgan xissasi. Farobiy xayoti va falsafa ilmiga qo‘shgan xissasi. Farobiy tibbiyotga qo‘shgan xissasi. O‘rta Osiyo buyuk qomusiy olimi Beruniyning tibbiyotga qo‘shgan xissasi. Beruniy xayoti va falsafa ilmiga qo‘shgan xissasi. “Qobusnoma” asari. Farmakognoziya asoslarini o‘rgatishga qo‘shgan xissasi. Yaxshi tabib bo‘lish o‘simliklarni yaxshi bilishdan, ularni xususiyatlarini eslab qolishdan boshlanadi. Ko‘p asrlar mobaynida yirik olimlar tomonidan yo‘riqnoma sifatida foydalanilishi.</p>
1.14	<p>In-Yan va besh element nazariyasining zamonaviy interpretatsiyasi. Qadimgi Sharq mamlakatlarida paydo bo‘lgan In-Yan va besh element nazariyasi boshlang‘ich qarashlari. Xozirgi paytda ushbu nazariyani tashxislash va davolashda qo‘llanilishi va o‘rni. Zamonaviy Sharq tibbiyoti tashxislashda In-Yan va besh element nazariyasining ahamiyati. Zamonaviy sharq tibbiyotida energiyalar balansi va a‘zolarning bog‘liqligini anglatuvchi besh element nazariyasiga asoslangan tashxislash usullarining dolzarbligi. Energetik tashxislash, meredian tashxislash. Zamonaviy Sharq tibbiyoti davolashda In-Yan va besh element nazariyasining ahamiyati. Energiya oqimining yo‘nalishi davolash usulini tanlashdagi roli. Organizmni energiya oqimini balansga keltirish orqali kasallik ildizini davolash. Ona va bola nazariyasi. Davolashda roli.</p>

5. Xalq tabobati falsafasi faniga oid kognitiv ko'nikma darajasi

1	quyi kognitiv daraja	<ul style="list-style-type: none">-Abstrakt fikr yuritish, xodisalarni tahlil va sintez qilish qobiliyatiga ega bo'lish;-Dunyoqarashni shakllantirish uchun falsafiy bilimlarning asoslaridan foydalanish qobiliyati;-Nostandart vaziyatlarda harakat qilish qobiliyati, qabul qilingan qarorlar uchun ijtimoiy va ahloqiy javobgarlikni olishga tayyorlik;-O'z-o'zini rivojlantirishga, anglashga, o'qishga, ijodiy salohiyatdan foydalanishga tayyorlik;
2	yuqori kognitiv daraja	<ul style="list-style-type: none">- Kasbiy faoliyatning standart vazifalarini falsafiy, axborot, bibliografik manbalar, biotibbiyot terminologiyasi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va axborot xavfsizligining asosiy talablarini hisobga olgan holda hal qilishga tayyorlik;- Professional faoliyatdagi muammolarni hal qilish uchun og'zaki va yozma ravishda rus va xorijiy tillarda muloqot qilishga tayyorlik;- Falsafiy konsepsiyalarni kasallikni to'g'ri tasavvur qilish, inson xayot tarzi va tibbiy madaniyatini takomillashtirishdagi roli va axamiyatidan to'g'ri foydalanishga tayyorgarlik.- Kasallikning paydo bo'lishi va rivojlanishini o'rganishda falsafiy tafakkur xususiyati va qonuniyatlarini tibbiy maqsadlarda ishlatishga tayyorlik;-Zamonaviy va ana'naviy tibbiyot o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni ajrata bilishni ta'minlashga tayyorlik;- Xalq tabobatda qo'llaniladigan davolash vositalari va usullarni ilmiy manbalardan foydalangan holda tanlay olishga tayyorlik.

6. Xalq tabobati falsafasi fanidan test topshiriqlari yordamida tekshiriladigan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalar

Xalq tabobati faniga oid test varianti test topshiruvchilarning nazariy bilimlarini o'zlashtirish darajasini, ularning mantiqiy fikrlashini baholaydigan test

topshiriqlaridan iborat. Mazkur test topshiriqlarini shakllantirishda amaldagi davlat ta'lim standartlari, Xalq tabobati fani ta'lim o'quv dasturlarida o'zlashtirilishi belgilab ko'rsatilgan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalar asos sifatida qaraldi.

Fan	Tekshiriladigan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalar		Kodi
Xalq tabobati falsafasi	<p>Tibbiy - profilaktik faoliyatida</p>	<p>-aholi orasida sog'lom turmush tarzini targ'ibot qilish;</p> <p>-aholi orasida kasalliklar rivojlanishiga sabab bo'luvchi xavf omillarni aniqlash va bartaraf etish;</p> <p>-aholi tibbiy nufuzini oshirish, ratsional ovqatlanish tamoyillari hamda zararli odatlari bartaraf etish borasida zarur chora – tadbirlarni amalga oshirish;</p> <p>-sog'liqni saqlash tizimida birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi profilaktika chora-tadbirlarini ishlab chiqish;</p> <p>-aholi orasida keng tarqalgan kasalliklarning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;</p> <p>-tibbiy-profilaktika faoliyatida ilg'or, innovatsion texnologiyalarni joriy etish;</p> <p>-tibbiy-profilaktika faoliyatida an'anaviy tibbiyot usullaridan foydalanish.</p> <p>-bemorning sog'lig'i, jismoniy va ruhiy buzilishining xususiyatini aniqlash uchun bemorni tekshirish.</p> <p>-aholi orasida profilaktika va sog'lom turmush tarzini shakllantirish, sanitariya-gigiyena ma'lumotlari bo'yicha chora-tadbirlar o'tkazish.</p>	1.1.1
	<p>Tezkor va shoshilinch tibbiy yordam faoliyatida</p>	<p>-shoshilinch holatlarni o'z vaqtida aniqlash;</p> <p>-kasalxonagacha bo'lgan tez yordam ko'lamini aniqlash va tibbiy yordam ko'rsatish;</p> <p>-ko'rsatmaga ko'ra zarur mutaxassislariga va kasalxonaga yuborish;</p> <p>-bemorning hayotiga tahdid soladigan holatlarni (ong, nafas olish, puls, teri, ko'z qorachig'i) aniqlash, birinchi tibbiy yordamni talab qiladigan bemorning sog'lig'i holatini baholash;</p> <p>-shoshilinch tibbiy yordam kelguniga qadar bemorning ahvolini kuzatib boorish;</p> <p>-bemorga va uning yaqin qarindoshlariga psixologik yordam ko'rsatish.</p>	1.2.1
	<p>Tashxislash va davolash faoliyatida</p>	<p>-aholi orasida keng tarqalgan kasalliklarni zamonaviy tibbiyot va xalq tabobati usullari orqali tashxislash;</p> <p>-keng tarqalgan kasalliklarni zamonaviy xalq tabobati usullardan foydalangan holda to'g'ri davolash;</p> <p>-bemorlarni ko'rsatmaga ko'ra tor mutaxassislar bilan birgalikda tashxislash va davolash;</p> <p>-o'z faoliyatida dalillarga asoslangan tibbiy standartlaridan foydalanish.</p>	1.3.1

	Reabilitatsiya va dispanser nazorati faoliyatida	-kasalliklar bo'yicha reabilitatsiya chora tadbirlarini o'tkazishga ko'rsatma va qarshi ko'rsatmalarni, muddatlarini to'g'ri aniqlash; -reabilitatsiya majmualarida xalq tabobati usullarni to'liq hajmda amalga oshirish; -bemorlar o'rtasida reabilitatsiya o'tkazishda zamonaviy va xalq tabobati usullardan foydalanish; -dispanser nazorati guruhlarida umumiy amaliyoti shifokori bilan to'g'ri aniqlash va bosqichlarini o'z vaqtida amalga oshirish.	1.4.1
	Ilmiy-tadqiqot va innovasion faoliyatida	-ilmiy-tadqiqotlarni o'tkazish, yangi ilmiy hamda amaliy natijalarni olish, olingan natijalarni tahlil qilish va amaliyotga tadbiq qilish; -echilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual va nazariy modellarini ishlab chiqish.	1.5.1
	Tibbiy-ijtimoiy faoliyatida	oila va alohida aholi guruhlarida o'rtasida inson salomatligiga ta'sir qiluvchi ijtimoiy-gigienik, ijtimoiy-psixologik omillarni aniqlashi va aholining alohida guruhlarida o'rtasida xavf omillarini bartaraf qilish.	1.6.1

7. Foydalanishga tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Usmanxodjaeva A.A., Mavlyanova Z.F., Biykuziev A.A., Biykuzieva A.A., Sharipov U.A. // «XALQ TABOBATI FALSAFASI»: DARSLIK // «TIBBIYOT NASHRIYOTI MATBAA UYI» MChJ, Toshkent, 2023. – 203 bet.
2. Li. B.N. Xalq tibbiyoti – darslik. Toshkent, 2008, 174 – bet.
3. Sobirova G.N. /Reabiiitoiogiya./ O'quv qodanma Toshkent «Poytaxt exculsive»
4. .A.H. O'smonxo'jaev, N.Z. Muxamedjanov, M.S. Azizov, F.N. Ibragimov Ibn Sino islohlari qomusi, Avitsenna ensiklopediya terminologiy, «YANGI ASR AVLODI», Toshkent 2013y, 472 b.
5. A.O'smonxo'jaev, M. Maxmud, M. To'raxonova, M. Xamroev, O'zbek xalq tabobati atamalarini izohli lug'ati, «Yangi asr avlodi», Toshkent, 2005 y., 306 b.
6. Клаус К. Шнорренбергер Учебник китайской медицины для западных врачей, Москва, 2007г.
7. X.H. Қаюмов., Ёнг Ил Сонг.,З.И.Туксанова. Игнатерапия, Бухоро, 2019й.
8. Liang Liu Essentials of Chinese Medicine Springer, 2011, 1546 pages
9. X.H. Қаюмов., Ёнг Ил Сонг.,З.И.Туксанова. Игнатерапия, Бухоро, 2019й.
10. Liang Liu Essentials of Chinese Medicine Springer, 2011, 1546 pages

***Izoh:** Mazkur hujjatga aprobatsiya natijalari hamda vakolatli davlat tashkilotlarining tegishli qaror va buyruqlariga asosan qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilishi mumkin.